

INGLIZ VA ITALYAN TILLARIDA POLISEMANTIK SO'ZLAR

Abduhalimova Mahbuba

DTPI talabasi

Annotatsiya: Tilshunoslikda so‘zning ko‘p ma’nolilik xususiyatini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ko‘p ma’noli so‘zlar turli usullar vositasida ma’no ko‘chishi orqali o‘z ma’nosidan boshqa ma’nolar ifodalagan holda tilning ifoda imkoniyatlarini boyishida muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, ko‘p ma’noli so‘zlar o‘z ma’nosidan tashqari ko‘chma ma’nolarga ham ega bo‘ladi. Ushbu maqolada ingliz tilidagi polisemantik so'zlar va ularning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Tilshunoslik,ko‘p ma’nolilik ,ma’no ko‘chishi,ko‘chma ma’no, polisemantik so'zlar

POLYSEMANIC WORDS IN ENGLISH AND ITALIAN LANGUAGES

Abduhalimova Mahbuba

Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

Abstract: In linguistics it is important to study the polysemantic feature of the word. Because, polysemantic words are important in enriching the expressive possibilities of the language. This article analyzes polysemantic words and their characteristics in English and Italian languages. The theoretical data about polysemantic words is based on examples in English and Italian languages.

Keywords: Linguistics, polysemy, transfer of meaning, figurative meaning, polysemantic words.

KIRISH:

Gapdan tashqarida bir ma'noni, gap tarkibida boshqa ma'noni ifodalaydigan so‘zlar ko‘p ma'noli (polisemantik) so‘zlar deyiladi.

Lison-nutq bo'linishi nuqtai nazaridan yondashsak, polisemantik leksema birdan ortiq semalarga ega bo'lib, u nutqda voqelanganda turli so'zlar bilan bog'lanib umumiste'moldagi va ixtisoslashgan ma'nolarni yuzaga chiqaradi. Leksema o'zining eng muhim vazifasi bo'lган voqelikdagi, inson ongidagi narsabuyum, belgi, xususiyat va mohiyatlarni atashni semema orqali bajaradi. Sememaning ongimizdagi tushunchalar bilan bog'liqligi leksemaning atash, nomlash vazifasini bajarishga imkon beradi [1;56]. Tilshunoslikda sememani hosil qiluvchi ma'no bo'laklari sema deyiladi. Masalan, [maktab] leksemasing sememalari quyidagi ma'no bo'lakchalari – semalardan tashkil topadi: o'rin-joy, o'quv dargohi, ta'lim maskani, bino, saboq, dars, ilmiy yo'naliш. Bu sirani yana davom etirish mumkin. Ushbu semalar [maktab] leksemasi haqidagi tasavvurlarni aks ettira oladi. Ammo sanab o'tilgan semalar ma'no xususiyati, darajasiga ko'ra farqlanadi. Bir sememali va ko'p sememali leksemalar nutqda ko'p ma'noli so'zlar sifatida yuzaga chiqadi, ya'ni nutqda leksema sememasining ko'rinishlari beriladi. Barqaror butunliklarning nutqiy ko'rinishlari, xillari esa cheksizdir [1;72]. Bir ma'noli (monosemantik) so'zlardan farqlanib, ko'p ma'noli (polisemantik) so'zlarda leksemaning nomlanayotgan narsa, predmet, belgi bilan munosabatiga ko'ra o'z (atash, bosh, asl, to'g'ri, motivlashmagan) ma'no va ko'chma (kontekstual ma'no, hosila ma'no, motivlashgan) ma'nolar farqlanadi. Bosh ma'no – leksemaning nutqiy qurshovsiz anglashiladigan, til iste'molchilarining ongida aks etgan, kontekstga bog'liq bo'lмаган, hosila – ko'chma ma'nolarning hosil bo'lishiga asos bo'lувчи atash ma'nosи. Bunday leksemalarning leksikografik talqini sodda va ortiqcha izohlarni talab etmaydi. Ko'chma ma'no leksemaning muayyan nutqiy qurshovga bog'liq bo'lган kontekstual ma'nosи bo'lib, leksema nutqiy voqelangandagina yuzaga chiqadi. So'z semantik strukturasi taraqqiyotini o'rganishda uni keltirib chiqaradigan sabab va asoslarni belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli kontekstual ma'nolarni lingvistik talqin qilish sinxron yondashuvni taqozo etadi [2;16-19].

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

Tilimizdagi so‘zlarning juda katta qismi ko‘p ma’nolidir, chunki kishilar o‘zining kundalik hayotida yangi paydo bo’lgan tushunchalarning har biri uchun alohida-alohida so‘zlar qo’llayveradigan bo’lsa, so‘zlarning soni o’ta ko‘payib ketib, ularni xotirada saqlash mumkin bo’lmay qolardi, natijada tildan foydalanish qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qolgan bo’lardi. Shuning uchun ham har qaysi tilda sanoqli til birliklarining turli xil birikuvidan cheksiz tushuncha va birikuvni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo’lgan so‘zlarga yangi-yangi ma’nolar yuklanadi. Natijada ko‘p ma’noli so‘zlar maydonga keladi.

Jumladan Ingliz tilida ham shu kabi so‘zlarni uchratishimiz mumkin, masalan:

Table so‘zining ma’nolari: 1.Jadval; 2. Stol; 3. Ovqat tayyorlash joyi; 4. Ro’yxat.

<i>Inglizcha so’zlar:</i>	<i>Dastlabki ma’nosi:</i>	<i>Boshqa ma’nolari:</i>
Run	Yugurmoq	Ishga tushmoq
Set	Sozlamoq	Sodir bo’lmoq
Go	Yurmoq, bormoq	Sarf bo'lmoq, o'tmoq
Turn	Burilish	Navbat
Fall	Pasayish	Sharshara, kuz fasli

Quyidagi jadvalda esa Italian tilidagi polisemantik so‘zlarga misollar keltirilgan:

Italian tilidagi so’z	1-ma’nosi	2-ma’nosi
batteria	Telefon batereyasi	Musiqa asbobi
ala	Qushning qanoti	Samalyot qanoti
rete	To’r, setka	Tarmoq (internet)

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

piano	Pianino	Reja
tempo	Vaqt	Ob-havo
campo	O'yin maydoni	Dala
lira	Lira – musiqa asbobi	Pul birligi
radice	O'simlikning o'zagi	Matematikada-o'zak
squadra		
verso	She'riyatdagi atama	Yaqinida (yo'nalish)
appunto	Qayd,yozuv	Darhaqiqat (ravish)
storia	Tarix	Hikoya

Tildagi so'zning ancha qismi ko'p ma'noli, chunki kishi o'zining kundalik hayotida yangi paydo bo'lgan tushunchaning har biri uchun alohida-alohida so'z qo'layveradigan bo'lsa, uning soni o'ta ko'payib ketib, xotirada saqlash mumkin bo'lmay qoladi. Natijada tildan foydalanish ham qiyinlashib, u sekin-asta yaroqsiz holga kelib qoladi.

Har qaysi tilda sanoqli til birligining turli xil birikuvidan cheksiz tushuncha va fikrni ifodalashga harakat qilinadi. Ana shunday harakat tufayli tilda ilgari mavjud bo'lgan so'zga yangi-yangi ma'no yuklanadi. Natijada ko'p ma'noli so'z hosil bo'ladi. Ko'p ma'noli so'zning ma'nosini bilish va undan nutq jarayonida o'rini foydalanish nutqning ta'sirchan, ifodali bo'lishiga yordam beradi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

- Неъматов X., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б. – Б.56

INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE "THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS "

2023 Warsaw, (Poland)

2. Наширова Ш. КҮП МАҢНОЛИ СҮЗЛАРНИ ЎҚУВ ЛУҒАТЛАРИДА ТАЛҚИН ҚИЛИШ МУАММОЛАРИ //Zamonaviy dunyoda ilm-fan va texnologiya. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – С. 16-19.
3. H.Jamolxonov. Hozirgi o`zbek adabiy tili. 2005, “Talqin” nashriyoti
4. M.Hamroyev, D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X. G‘ulomova, Sh.Yo‘ldosheva. Ona tili. Toshkent, 2007-yil.
5. Sulaymonov B. N., Akbarov A. M. O ‘ZBEK TILINING IZOHLI LUG‘ATLARIDA KO ‘P MA’NOLI SO ‘ZLAR TALQINI //SCHOLAR. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 152-157.
6. Arnold I. V. Leksikologiya sovremennoogo angliyskogo jazyka [Lexicology of Modern English] //Moscow, Vysshaya shkola. – 1986.
7. Davlayev A. A., Xudoyqulov B. XORIJUY TILDAGI FRAZEEOLOGIK IBORALARNI QIYOSIY O’RGANISHNING AYRIM XUSUSIYATLARI //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 5. – С. 1108-1113.
8. Xudoyqulov B. A REVIEW ON THE STUDY OF PHRASEOLOGICAL EXPRESSIONS IN ITALIAN LANGUAGE //Gospodarka i Innowacje. – 2023. – Т. 33. – С. 212-214.